

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FAN DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AMALIY ISHLARNING AHAMIYATI

Ne'matova Sevinch Baxtiyor qizi

Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda tabiiy fan darslarini jonli tabiat bilan bog'liq holda tashkil etish va darslarning samaradorligini oshirishda olib boriladigan amaliy ishlar va ularning turlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: jonli tabiat, amaliy ishlar, jonli tabiat burchagi, ko'rgazmali vositalar

Bugungi kunda ta'lim tizimidagi o'zgarishlar ta'lim jarayonini yangilanishini va nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'liq holda tashkil qilishni talab etmoqda. Bu eng avval, tabiiy fanlar darslarini tashkil etishda ko'zga tashlanadi. Boshlang'ich sinflarda tabiat haqidagi bilimlarni o'quvchi tasavvurida shakllantirish uchun nazariy bilimlarni o'zi yetarli bo'lmaydi. Ular tasavvurida mavhum bo'lgan yangi tushunchalarni mazmunini ochib berish uchun ham biz amaliy va ko'rgazmali jarayonlarga alohida ahamiyat qaratamiz.

Tabiiy fanlar darslarining asosiy maqsadi, o'quvchilarni tabiatni kuzatishga o'rgatish, ularda mehnat ko'nikmalari va tabiatga ongli munosabatni shakllantirishdan iborat. Ana shu muhim talablarni bajarish, avvalo, tabiat haqidagi tasavvur va tushunchalarni shakllantirishdan boshlanadi.

O'quvchilarning sezgilari qabul qilib olishlari va zehniy rivojlanishlariga ta'sir etuvchi ko'rgazmali qurollar va texnika vositalari hamda ekskursiyalar o'tkazilishi bilimlarning o'zlashtirilishiga yordam beradi. Tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida

boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilmiy dunyoqarash asoslari shakllantiriladi (o'qituvchi tabiat jismlari va voqea-hodisalarining moddiylikini, ularning o'zaro bog'liqligini izchillik bilan ochib beradi, tabiatda sodir bo'lib turadigan doimiy o'zgarishlarni xarakterlaydi va hokazo), estetik tuyg'u, tabiatga muhabbat, uning to'g'risida g'amxo'rlik qilish va muhofaza etishga intilish tarbiyalanadi.

Amaliy ishlar o'qituvchi tomonidan tashkil qilinadigan va yo'naltiriladigan, o'quvchilar fikrini rivojlantirishga mo'ljallangan jarayonni nazarda tutadi. Amaliy ishlar o'rganilgan materialni tushunishga, ko'nikma va malakalarni hosil qilishga imkoniyat

yaratadi. Amaliy ish boshlanishi oldidan qo'yiladigan savol, muammo va masalaga o'quvchilar uning natijalari bilan javob berishlari kerak.

Amaliy ishlar quyidagi tartibda olib boriladi:

- Ish maqsadini e'lon qilish;
- O'qituvchining yo'l-yo'riqlar berishi;
- Topshiriqni tushuntirish;
- Materiallarni tarqatish;
- Kuzatish, o'tkazilgan ish natijalarini tushuntirish bilan suhbat;
- Xulosalarni daftarga yozish;
- Rasmlar chizish.

Amaliy ishlarning asosiy qiyinchiligi kuzatilayotgan hodisalarni aniqlab olish, eng muhimlarini ajrata obilish, xulosalarni ifodalay olishdir.

Tajriba- o'qitish metodlaridan biri bo'lib, u yordamida o'rganilayotgan hodisa qonuniyatlarini aniqlashga yordam beruvchi sharoitlar yaratiladi. Tajribalar o'tkazishda o'quvchilarda tushunilishi qiyin bo'lgan tasavvurlar shakllanadi. Tajribalar atrof olamni anglashning eng samarali va qiziqarli usullaridan hisoblanadi.

Tajribalar mavhum tushunchalarni aniq tushunchalarga aylantirishda o'quvchilarga yordam beradi. Masalan, ular faqat tajriba jarayonidagina termometrning simob ustuni haroratning o'zgarishiga qarab ko'tarilishi va pasayishiga ishonch hosil qiladilar. Hatto suvning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini ham tajribada ko'rish mumkin. Oddiy tajribalar o'quvchilar tomonidan uy sharoitida, o'quv-tajriba uchastkalarida yoki tirik tabiat burchagida mustaqil bajariladi. Qiyinroq tajribalar esa o'qituvchi tomonidan dars jarayonida namoyish qilinishi mumkin. Shuni esda tutish kerakki, mazmuni jihatidan eng oddiy tajribalar faqat bilim berishi bilangina emas, balki kuzatish orqali o'quvchilarni fahmlashga, uning natijalarini ta'riflashga yordam berishi bilan ham ahamiyatlidir.

Har qaysi tajribani boshlashdan oldin o'qituvchi o'quvchilarga uning maqsadini, tajriba o'tkazishda nima uchun xuddi shu asboblar va moddalar olinganligini yaxshilab tushuntirish, tajribaning o'tkazilishini hikoya qilib berish rejasini yozishi kerak.

Xullas, boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida amalga oshiriladigan amaliy ishlar nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lanishi, chuqurlashishi, qishloq xo'jaligi qurollari bilan muomala qilish o'quvlarini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D.Sharipova, D.P.Xodiyeva, M.K.Shirinova. Tabiatshunoslik va uni o`qitish metodikasi. Toshkent, "Barkamol fayz media" nashriyoti, 2018-yil
2. M.Nuriddinova. Tabiatshunoslik o`qitish metodikasi. Toshkent, O`qituvchi 2005-yil
3. K.Suyarov .Tabiiy fanlar. 3-sinflar uchun darslik. Toshkent: Respublika ta`lim markazi, 2021. 120 be